



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
XORAZM VILOYATI FILIALI**

Manzil: 220106, Urgahch shahar, Yoshlik ko'chasi, Tel: 95-620-10-42, 95-620-10-43.

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/13-2366

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: XORAZM OMAD SERVIS MCHJga berildi.

STIR: 303364479

Obyekt nomi: Xorazm viloyati Xazorasp tumani, P.Mahmud mahallasi, G'.G'ulom ko'chasi hududida ikki qavatli Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi binosi qurilishi

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "KAMRON EKO INVEST" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

STIR: 302227695

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: MATYOQUBOV SANJARBEK HUSINOVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 7-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 17.03.2025

Amal qilish muddati: 17.03.2028

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rivoja etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



J.Xayitov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari

- Ob’ekt rekonstruksiyasi va qurilishidan oldin tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, yer resurslari va kadastr bo‘limi, sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi xizmati, yo‘l, elektr, suv va gaz tarmoqlari boshqarmasi, favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda FVBning tuman bo‘limlari tomonidan berilgan texnik shartlar asosida amalda bajarish.

- O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining PF-5863-son hamda PF-6155-son Farmonlariga binoan davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarning kesilishiga moratoriyl belgilanganligi sababli ushbu farmonlar talablarini amalda bajarish.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PF-46-son Farmoniga muvofiq butun mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko‘paytirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalda oshirilayotganligini inobatga olish.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruhsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida”gi 2014 yil 20 oktyabr 290-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomda ko‘rsatilgan talablarga rioya qilish, mavjud manzarali daraxt va butalarni muxofazasini kuchaytirib saqlab qolish, daraxtlarni noqonuniy kesish xolatlarini oldini olish.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2022 yil 22 avgust 464-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablarga rioya qilish.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi xududidagi suv ob’ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 981- sonli qarori talablariga qat’iy rioya qilish.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 apreldagi 202-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof, tabiiy muxit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to‘lovlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosan nazorat qilish Urganch tumani bo‘limi zimmasiga yuklatilsin.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28-yanvardagi “Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 40-son qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablariga rioya qilish, qurilish chiqindilarni taalluqligi bo‘yicha tegishli tashkilotlarga muddatlarida topshirilishini ta‘minlash, kam chiqitli texnologiyalardan va muqobil energiya turlaridan foydalanish choralarini ko‘rish,

ob'ektda xosil bo'lgan chiqindilarini taalluqligi bo'yicha tegishli tashkilotlarga muddatlarida topshirilishini ta'minlash.

- Ob'ektdan foydalanishda hosil bo'lgan oqova suvlarni vaqtinchalik saqlash uchun shimuvchanlikka qarshi maxsus qoplamali temir-beton chuqurchalar barpo qilish, maishiy chiqindilar uchun maxsus idishlar qo'yish joyi tashkil qilish va qattiq chiqindilarni muntazam tashib chiqarish uchun transport vositalarini kirib chiqishini ta'minlash, sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi xizmati ko'rsatmasi asosida oqova suvlarni tozalash inshootlariga tashib turish va qattiq chiqindilarni belgilangan joylarga joylashtirish.

- Viloyat sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi xizmati laboratoriya xodimlari yordamida qurilish qilinayotgan yer maydoni tuprog'idan namuna oldirib, zaxarli kimyoviy moddalar qoldig'i bor yo'qligi bo'yicha tahliliy xulosalar olish.

- SanQvaM №0350-17ning talablariga muvofiq sanitar-himoya zonasini ta'minlash.

- Ob'ektda kam chiqitli va muqobil energiyadan foydalanish choralarini ko'rish.

- Ob'ektni foydalanishga topshirish jarayonida Xorazm viloyati Ekologiya, atrof-muxitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi vakili ishtirokini ta'minlash.

Nazorat uchun

Xorazm viloyat Ekologiya, atrof-muxitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi, Xazorasp tumani bo'limidan Xorazm viloyati Xazorasp tumani, P.Mahmud mahallasi, G'.G'ulom ko'chasi hududida ikki qavatli Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi binosi qurilishining "Atrof muxitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" loyihasida keltirib o'tilgan ekologiya va atrof-muxit muhofazasiga oid chora-tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini nazoratga olish talab etiladi.



Ma'sul ekspert: MATYOQUBOV SANJARBEK HUSINOVICH
Tel: 998995020621

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

Buyurtmachi tomonidan Xorazm viloyati Xazorasp tumani, P.Mahmud mahallasi, G'.G'ulom ko'chasi hududida ikki qavatl Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi binosi qurilishining "Atrof muxitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" loyihasi xujjatlari "Davlat ekologik ekspertiza markazi" Xorazm filialiga taqdim qilindi.

Loyihaning asosiy maqsadi ikki qavatl Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi binosi qurilishi va faoliyati jarayonida uni - atrof muxitga ta'siri ko'rsatishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq baholashdan iborat. Loyiha Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasining 22.04.2022 yildagi 1733-1733220-41153-sonli arxitektura-rejalahtirish topshirig'i, "Xorazm omad servis" MChJning 14.04.2022 yildagi 50203311-sonli arizasi, Xozorasp tumani hokimining 27.04.221 yildagi 793q-sonli qarori hamda Xazorasp tumani Elektr ta'minoti korxonasi, Xorazm suv ta'minoti MChJning tuman bo'limi, va Xazorasp tumangaz ta'minoti bo'limining 2022 yilda berilgan tegishli texnik shartlari loyiada qayd qilingan. Shuningdek, loyiha O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Chiqindilar to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunlari hamda tegishli tartibdagi rahbariy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 sentyabrdagi 541-sonli qaroriga asosan atrof-muxitga ta'sir ko'rsatishning **4-toifasiga** mansub bo'lib, mahalliy ta'sir ko'rsatish faoliyat turi hisoblanadi. Loyihada ob'ektni joylashgan o'rni, mintaqaning iqlimi, fizik-geografik tafsilotlari, tuproq tarkibi, yer osti suvlaring satxi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda atrof muxitning hozirgi holati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, iqlim jixatdan ob'ekt joylashgan maydon O'rta Osiyo markaziy qismining cho'l hududiga kirib, keskin kontinentalligi, yoz fasli juda issiq, qish fasli juda sovuq va quruq bo'lib, yoz faslida havo harorati +45-48°Sni, qish faslida -34-35°Sni tashkil qiladi, xududda shamolning o'rtacha tezligi 3-4 m/s.ni tashkil qiladi. Hudud seysmik jixatdan Rixter shkalasi bo'yicha 7 balli toifaga kiradi. Yillik yog'in ko'rsatkichi o'rtacha 100 mm.ni tashkil qiladi.

Loyiha uchun tanlangan yer maydoni Xorazm viloyati Xazorasp tumani, P.Mahmud mahallasi, G'.G'ulom ko'chasida joylashgan bo'lib, chegaralanishi quyidagicha: shimol tomonidan G'.G'ulom ko'chasi bilan, janub tomonidan turar-joy hududi bilan, sharq tomonidan Xazorasp tumani sug'urta bo'limi binosi bilan va g'arb tomonidan yo'l bilan chegaralangan.

Ob'ektning geografik koordinatalari: 41°19'33.0" Sh.K 61°03'49.2 Sh.U

Loyihada ob'ektning umumiylar maydoni 600,0 kv.metr bo'lib, ob'ektning qurilish maydoni 216,0 kv.metrni tashkil qilib, xududda quyidagilar: ikki qavatl bino ya'ni savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchasi, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish maydoni uchun 150 kv.metr va qoplamali maydon uchun 230 kv.metr, shuningdek 1 dona yong'inga qarshi uskunalar qalqoni hamda chiqindi qutusi joylashtirilishi rejalahtirilgan.

Ob'ektda atmosfera havosiga zararli chiqindilar asosan ob'ektda 1 ta maishiy isitish qozoni va 1 ta PG-4 gaz plitasi ishlatilishidan ifloslantiruvchi moddalar hosil bo'lib, jami atmosfera havosiga - 0,1397 tn/yil miqdorda ifloslantiruvchi moddalar tashlanadi. Shu jumladan 0,1022 tn/yil - uglerod oksidi, 0,037 tn/yil - azot ikki oksidi, 0,0005 tn/yil miqdorda oltengugurt angidridi tashlanishi kutiladi. Loyihada atmosfera havosiga chiqaradigan chiqindilar yer yuzi konsentratsiyasini EXMdan foydalangan dastur orqali aniqlangan va uning natijasida havoga chiqariladigan barcha zararli moddalar konsentratsiyasi ob'ekt chegarasida KChMga muvofiqligi ma'lum bo'ldi. Ob'ektda kam chiqitli zamonaviy elektr energiyada ishlaydigan qurilmalardan foydalaniladi.

Ob'ektning suvdan foydalanish manbalari: ichimlik - xo'jalik ehtiyojlari uchun vodoprovod tarmog'idan olinishi rejalahtirilgan. Boshqa ehtiyojlar uchun mahalliy ariq yoki yer osti suvidan

foydalanimish rejalshtirilgan. Ishlatiladigan suvning umumiy miqdori yiliga 228,24 m³ni tashkil qilib, shundan maishiy ehtiyojlar uchun 171,74 m³ va qoplamali va ekin maydonlarini sug‘orishga 56,5 m³ suv ishlatilishi rejalshtirilgan. Hosil bo‘ladigan oqova suvlarning miqdori jami 171,74 m³ni tashkil qilib, foydalishdan hosil bo‘lgan oqova suvlar, yopiq quvurlar orqali hududdagi 10 m³ xajmli chuqurchasida to‘planib, tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi xizmati texnik shartlari asosida maxsus avtotransportlarda oqova tozalash inshootiga tashlanishi loyihada qayd qilingan.

Ob’ekt faoliyatidan hosil bo‘ladigan maishiy xo‘jalik chiqindilar hisobi yiliga 6,065 tonnani tashkil qilib, shartnomaga asosida tegishli taskilotlar tomonidan belgilangan chiqindixonaga tashib ketiladi. Ko‘kalamzor maydonlardan hosil bo‘lishi kutilgan 4,575 tonna o‘simgilik yaproqlari, shox-shabbalari va boshqa qoldiqlari maxsus urada chiritilib, mahalliy o‘g‘it sifatida dalalarga ishlatilishi, 20,0 tn/yil qurilish chiqindilari maxsus joylarda to‘planib, qurilish korxonasi bazasiga olib chiqilishi loyihada qayd qilingan. Loyihada ob’ektni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va daraxtlar ekish ishlari rejalshtirilgan.

Ob’ekt faoliyati davrida avariya vaziyatlarda yong‘in xavfsizligi texnikasi talab va qoidalariga amal qilish ko‘rsatilgan.



Ma’sul ekspert: MATYOQUBOV SANJARBEK HUSINOVICH
Tel: 998995020621